

BEHBUDIY PUBLITSISTIKASIDA KO'CHIMLARING LEKSIK XUSUSIYATLARI

¹Masharipov Mansurbek Masharipovich, Urganch innovatsion universiteti prorektori, dotsent, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

²Karimova Gulbahor Narimonovna, Urganch innovatsion universiteti magistranti

LEXICAL FEATURES OF FIGURATIVE MEANINGS IN BEHBUDIY'S PUBLICISM

¹Masharipov Mansurbek Masharipovich, Prorector of Urganch innovation university, Associate Professor, Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD)

²Karimova Gulbahor Narimonovna, Master's student at Urganch innovation university

ЛЕКСИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ПЕРЕНОСНЫХ ЗНАЧЕНИЙ В ПУБЛИЦИСТИКЕ БЕХБУДИ

¹Машарипов Мансурбек Машарипович, проректор Ургенчского инновационного университета, доцент, доктор философии по филологическим наукам (PhD)

²Каримова Гульбахор Наримоновна, магистрант Ургенчского инновационного университета

Annotatsiya: Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikasidagi leksemalarning ko'chma ma'nolarda qo'llanishi davrning asosiy intilishlarini, jadidlarning maqsad va g'oyalarini ifodalashga yo'naltirilganligi hamda an'anaviy poetik so'zlarni yangi ma'nolarda qo'llashga olib kelganligi tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: hosila ma'no, leksik-semantik munosabat, ma'no ko'chishi, tasviriy vosita, hissiy-ta'siriy bo'yoq, kinoya, adabiy me'yor, bosh ma'no, metafora.

Abstract: The use of lexemes in figurative meanings in Mahmud Khoja Behbudiy's publicism is analyzed, showing that it was directed toward expressing the main aspirations of the era, the goals and ideas of the Jadids, and led to the use of traditional poetic words in new meanings.

Key words: derived meaning, lexical-semantic relationship, meaning shift, figurative device, emotional-expressive connotation, irony, literary norm.


Аннотация: Анализируется употребление лексем в переносном значении в публицистике Махмуда Ходжи Бехбуди, показывающее, что оно было направлено на выражение основных устремлений эпохи, целей и идей джадидов и привело к использованию традиционных поэтических слов в новых значениях.

Ключевые слова: производное значение, лексико-семантическая связь, смысловой сдвиг, образный прием, эмоционально-экспрессивный оттенок, ирония, литературная норма.



<https://orcid.org/0009-0001-6582-6239>

e-mail:
mansurbekmasharipov@urgiu.uz



<https://orcid.org/0009-0002-1579-1506>

e-mail:
karimovagulbahor@urgiu.uz

KIRISH. Badiiy nutqdagi kabi publitsistik nutqda ham hosila ma'no hosil qilishning keng tarqalgan usuli metafora vositasi sanaladi. Narsa-buyum, voqea va hodisalar o'rtasidagi o'zaro o'xshashlikka asoslangan ma'no ko'chishiga metafora deyiladi. *Metafora* nutq mexanizmi, biror leksema denotatining tashqi, zohiriy o'xshashligi asosida boshqa ma'noni ifodalash uchun ishlatilishidir. Metaforik ma'no hosil bo'lishi uchun quyidagilardan biri sabab bo'ladi: 1) bir so'z boshqa so'zga nisbatan so'zlovchining ifoda maqsadiga ko'proq mos va muvofiq bo'ladi va shuning uchun birinchisi o'rnida ikkinchisi qo'llaniladi; 2) biror denotatning ifodalovchisi bo'lmaydi va ma'lum bir so'z boshqa denotatni ham ifodalash uchun qo'llanadi. Demak, birinchi holatda ko'chirilayotgan so'z denotatning ikkinchi atamasi bo'lsa, ikkinchi holatda esa birinchisining atamasidir¹.

Ma'lumki, publitsistik nutqning o'ziga xos xususiyatlaridan birini unda so'zlarning xilma-xil ko'chma, ramziy hamda okkazional ma'nolarda qo'llanishi tashkil etadi. Bu bilan publitsistik nutqning badiiyati ta'minlanadi. Darhaqiqat, til birliklarining semantik tabiatidagi eng muhim halqa sanaladigan leksema va iboralarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali boshqa funksional uslub janrlari qatorida publitsistik uslubga xos matnlarning ham obrazlilik, tasviriylik imkoniyatlari ta'minlanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.

Lisoniy sathda leksemalarning semantik tabiatidagi o'zgarishlar ma'no ko'chishi, kengayishi va torayishi tarzida sodir bo'ladi. Bunda leksema birdan ortiq tushunchani ifodalaganda, narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomlari ma'lum bir asosga ko'ra boshqa narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat nomi o'laroq ham qo'llanadi va har bir tushuncha uchun alohida semema to'g'ri keladi. Natijada bitta so'z bir necha narsa-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holatning nomi o'laroq hosila ma'no tarzida tilda voqelanadi. Hosila ma'no bosh ma'no nima asosida ko'chishiga ko'ra metafora, metonimiya, sinekdoxa, vazifadoshlik, kinoya kabi turlarga bo'linishi fanda ma'lum.

Ko'chma ma'no hosil qilishning keng tarqalgan bu usuli o'zlari yashab kelayotgan har bir milliy til qadar qadimiydir. Bu usul xalq og'zaki ijodida, mumtoz adabiyotda ham ilgaridan mashhur bo'lib kelgan. Mumtoz adabiyotda metafora *majoz* nomi bilan yuritilgan va u bilan yonma-yon tarzda *istiora* atamasi ham keng qo'llangan. Tilda va badiiy nutqda qo'llanishiga ko'ra metaforani ikki turga ajratish mumkin: 1) til metaforasi; 2) badiiy metafora. Til metaforasi badiiy metaforadan o'xshashlikning formasiga ko'ra farqlanadi². Professor S.Usmonov til metaforasi va badiiy metaforaning o'zaro farqlanishini quyidagicha izohlaydi: "Badiiy adabiyotda metafora o'xshatishning qisqargan formasi bo'lib, predmetning nomi vazifasini bajarmaydi. Chunki bunda so'z shu nutqiy parchada ilgari hech qanday anglatmagan predmet yoki hodisani ifodalaydi. Metafora predmetning doimiy nomi bo'lib qolgandagina tilshunoslik fani tekshiradigan hodisa hisoblanadi. Chunki bunday metafora umumxalq tiliga xos, badiiy metafora esa yozuvchining individual usuliga xosdir"³.

MUHOKAMA. Mahmudxo'ja Behbudiy maqolalarida o'xshatish asosida so'zlarni yangi ma'noda qo'llar ekan, ularning ko'chma ma'nolarini ma'rifat, ilm, bilim olish g'oyalari mazmuniga bo'ysundiradi, mana shu mavzuga bog'liq yangicha talqin qiladi. Bu jihatdan, ayniqsa, **uyqu**, **xob** so'zlarining qo'llanishi xarakterlidir. Adib bu so'zlarning "ongsizlik", "qoloqlik", "ma'rifatsizlik", "loqaydlik" kabi ma'nolarini berish uchun bu so'zning ko'chma ma'nosidan mohirona foydalangan: "*Demakki, hanuz xalqimiz xob, uyquda bo'lib, o'z nafi va zarari uchun qayg'urmay, bolta kelguncha kundadek yotadur*".

Mustaqillik yillarida tildagi mazkur hodisa tadqiqiga bag'ishlangan yangicha yondashuvdagi ilmiy asarlar ham yuzaga keldi. Bu o'rinda G.Qobuljonova, A.Xo'jamqulov, D.Xudayberganova, D.Rustamova, A.Yuldashev, G.Nasrullayeva, Sh.Maxmaraimovalar ishlarini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi. Jumladan, tadqiqotchi A.Xo'jamqulovning metaforalarni

¹ Sayfullayeva R. va boshqalar. Hozirgi o'zbek tili (Oliy o'quv yurtlari uchun darslik). – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B. 127.

² Умуркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Тошкент: Фан, 1990. – 151 б.

³ Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. №4, – Б. 34-39.

tasniflashdagi yondashuvi ham o'ziga xoslik kasb etadi: 1) antropomorfik metafora. Bu inson va unga tegishli (xos) bo'lgan (tana a'zosi, kiyimi) predmetlar nomi asosida hosil qilingan metafora, *oyoq, qo'l, og'iz, til, tish, quloq, yeng, yoqa* kabi leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi; 2) zoomorfik metafora. Bu hayvonlar va ularning tana a'zolari nomini ifodalagan leksemalar ma'nosining metaforik usulda ko'chishi, bu turga *bo'ri, tulki, ayiq, ilon, it, qo'y, mol, shox, dum, qanot* kabi leksemalarning metaforik ma'no hosil qilishi kiradi; 3) fitomorfik metafora. Bu daraxt, o'simliklar va ularning qismlari nomini anglatgan leksemalar ma'nosining ko'chishi natijasida hosil bo'lgan metafora *g'uncha, gul, chinor, chaqirtikanak, danak* kabi leksemalarning metaforik ma'noda qo'llanishi bunga misol bo'ladi.

NATIJALAR. “**Bulbul**” so'zi o'tmish she'riyatida o'z nominativ ma'nosidan tashqari “*xushovoz*”, “*xushovoz shoir*”; “*aniq*”; “*jon*”; “*did*” kabi ma'nolarni anglatgan. Hozirgi tilda uning “*xushovoz xonanda*”, “*oshiq*”, “*xushtor*” ma'nolari saqlangan. Behbudiy **bulbul** so'zidan – “*o'zgarish*”, “*yangilanish*” kabi metaforik ko'chma ma'nolarda mohirlik bilan foydalanadi: “*Bovujud shul ilmi diniy va axloqi madaniydan Turkistonda bulbullar chah-chah qilurlar*”⁴. Adib ma'rifatga intilmaydigan, jaholat iskanjasidagi kishilarni g'aflatdagi insonga o'xshatadi va ularni “*bulbuli g'ofil*” deb ataydi: “*Maktab va madrasalarning usul ta'limini isloh qilmak kerakligini bu bulbuli g'ofillar ochuq tushunmaydurlar*”.

Kengaygan metaforalarning ma'no ifodalash xususiyati metafora birikkan so'zning semantik tabiatiga ham bog'liq bo'ladi: a) agar metaforik ma'no ifodalayotgan so'zga birikkan so'z aniq tushunchani ifodalasa, kengaygan metaforaning ma'nosi ham aniq bo'ladi; b) metaforik ma'no ifodalayotgan so'zga birikkan so'z abstrakt ma'no ifodalasa, kengaygan metafora ham mavhum tushunchani ifodalaydi⁵.

Keyingi yillardagi tilshunoslikda til birliklarining antropotsentrik tadqiqining natijasi sifatida metaforalarga bevosita insonning ichki va

tashqi sifatleri bilan bog'liq hodisa sifatida qaralishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda metaforalar qanchalik rang-barang bo'lmasin, uning markazida inson turishi ta'kidlanadi. Antropotsentrik g'oyalarni o'zbek tilshunosligiga ilmiy jihatdan tom ma'noda to'g'ri, mohiyatini teran anglatib olib kirgan tilshunos olim D.Xudayberganova zamonaviy metaforologiyaning g'oyalariga uyg'un holda, metaforadagi antropotsentrik tabiatga urg'u beradi⁶.

O'zbek tilshunosligida o'tgan asrning so'nggi o'n yilliklaridan boshlab metaforalarning lingvistik jihatdan o'rganish ishlari boshlandi. O'zbek adabiy tili, uning funksional uslublari matnida qo'llanuvchi bu hodisaning mazmun-mohiyati, yuzaga kelganligini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, adib publitsistikasida sifat leksemalar o'z denotativ ma'nolari ustiga qurilgan metaforik ko'chim asosida matn tarkibida konnotatsiyani yuzaga keltirishda faol ishtirok etgan. Publitsistik matnda metaforik yo'l bilan yuzaga kelgan konnotativ jarayon o'quvchining aytilmoqchi bo'lgan fikrni to'laqonli tushunishiga imkoniyat yaratgan.

Tadqiq qilinayotgan publitsistik asarlar tilining xalqchillashuvi, xalq tiliga yaqinlashuvida talab va ehtiyojga ko'ra fe'llar – ish-harakatni, uning xususiyatlarini ifoda etuvchi leksikaning faollashuvi kuzatildi. O'zbek mumtoz adabiyoti asarlari tili kuzatilsa, unda ko'proq oshiq-ma'shuqlarning turli harakati, psixik holati va intim intilishlari bilan bog'liq fe'llarning ishlatilganini ko'ramiz. Publitsistik asarlar tilining xalqchillashuvi unda qo'llaniladigan fe'llar ma'no doirasining kengayishiga yo'l ochgan. M.Behbudiy maqolalarida fikr, mazmun talabiga ko'ra turli harakat, holat ifodalovchi fe'llardan, ularni metaforik usulda ko'chma ma'nolarda qo'llash usulidan mohirona foydalangan.

XULOSA. Umuman olganda, metaforalar har bir xalqning mentalligini, milliy ongini, badiiy tasvir vositasini, diniy-dunyoviy tafakkur tarzini o'zida yaqqol namoyon qiladi hamda xalq madaniyati bilan uzviy aloqada va rivojlanishda mavjud bo'ladi. Ma'rifatparvar adibning publitsistik mahorati ma'no ko'chish yo'llarining eng

⁴ Махмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар 2-жилдлик. 1-жилд. (Нашрга тайёрловчи Сирожиiddин Аҳмад). – Тошкент: Akademnashr, 2018. – Б.365. Бундан кейинги мисоллар ҳам шу манбадан олинди ва манба саҳифаси кавс ичида кўрсатилди.

⁵ Умуркулов Б. Поэтик адабиёт ва унинг шеърӣ нутқдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1980. №6. – Б.39.

⁶ Худайбергано́ва Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентри́к таълиқи: Фил. фан. д-ри. дисс. – Тошкент: 2013. – Б. 74–80.

sermahsuli – metaforalarni qo‘llashida namoyon bo‘lar ekan, bu holat uning badiiy tafakkuri yuksakligidan, tildagi grammatik tushunchalarni anglash ko‘nikmasining yuqoriligidan dalolat beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Умурқулов Б. Поэтик адабиёт ва унинг шеърӣ нутқдаги аҳамияти // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 1980. №6. – Б.39.
2. Усмонов С. Метафора // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1964. №4, – Б. 34-39.
3. Ризаев Ш. Жадид драмаси. – Тошкент: Шарқ, 1997.
4. Авазов С. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг ижодий мероси: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1995.
5. Саидов Х. Маҳмудхўжа Бехбудийнинг публицистик ва муҳаррирлик фаолияти: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф.. – Тошкент, 2002.
6. Абдурахмонов Ғ. Бехбудий ва унинг ҳозирги ўзбек адабий тилининг шаклланишидаги хизматлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1995.

